



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№8(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 490 sahifa,
3-avgust, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Sun'iy intellekt muhitida o'sib kelayotgan Alfa avlodining shaxsiy va psixik rivojlanishi	10
Jo'rayeva Dilfuza Abdug'aniyevna	
Teng yonli uchburchak xossalari va kesmaning o'rta perpendikulyari xossalardan foydalangan holda masalalar yechish	13
Namozov Diyorbek Baxtiyor o'g'li	
Xiva xonligining siyosiy boshqaruv modeli: Buxoro va Qo'qon xonliklari bilan qiyosiy tahlili.....	17
Mutallibjonov Boburmirzo	
Boshlang'ich sinfda informatika fanini o'qitish metodikasi	26
Nosirova Feruza Baxadir qizi	
Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirishning strukturaviy-faoliyatli modeli.....	30
Gafurova Mahfuza Abbosovna	
Mutafakkirlar asarlarida bolalar faolligini shakllantirishda o'yinlardan foydalanishning yoritilishi	35
Ravshanova Uldona Narziboyevna	
Ijtimoiy-madaniy qadriyatlar variatsiyasi sharoitida talabalarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish mazmuni	39
Vorisova Barnoxon Olimjon qizi	
Huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiya integratsiyasi orqali yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olish	43
Habibjonov Izzatbek Dilshodjon o'g'li	
Bo'lajak o'qituvchilarning tanqidiy va refleksiv tafakkurini rivojlantirishda antfragil yondashuvning o'rni.....	51
G'ulomjonova Ziyodaxon A'zamjon qizi	
Badiy adabiyotning yoshlar tarbiyasidagi didaktik imkoniyatlari	57
Irisboyeva Xotiraxon Utbasarovna	
Talabalarining o'quv amaliyoti jarayonida kasbiy mobilligini rivojlantirishda dual ta'limga asoslangan metodikani takomillashtirish	61
G'ofurov To'liqinjon	
Didactic Opportunities of Content and Language Integrated Learning (CLIL) Technology in English Language Teaching	67
Ismailova Aziza Dilshodovna	
Фольклорные источники в историко-географическом изучении памятников Устюрта.....	72
Канаатов Есимкан	
Xorijiy davlatlar tajribasida o'zgarishlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish amaliyoti.....	76
Abdullayev Amirulla Xazratovich	
Algoritmik faollikni rivojlantirishning zamonaviy metodik yondashuvi	81
Pardayeva Kamola Sultonovna	
Sun'iy intellekt va startap ekotizimi asosida talabalarining tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish	86
Imomaliyev Quvvat Choriyevich	
Maktab ta'limida o'qitish sifatini baholashning ko'p tarmoqli raqamli-diaagnostik tizimini joriy etish va boshqarish	91
Nurmetov Tursunbek Kenjayevich	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	96
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarining malakaviy va pedagogik amaliyotlari uzviyligini ta'minlashning metodik modeli	99
Mardonov Maqsudbek Maxmudovich	
Nogironligi bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning nazariy-metodologik asoslari	103
Umarova Umidaxon Ibaydullayevna	



Chizmachilik darslarida animatsiyali modellarni qo'llashning pedagogik asoslari	108
<i>Xo'janiyozov Shokir Rustamovich</i>	
Fanlararo aloqadorlik asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish metodikasi va uning eksperimental samaradorligi	114
<i>Isroilova E'zoza Akmal qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida ingliz tilini o'qitishda veb-kvestlar va raqamli keyslarni samarali qo'llash usullari	119
<i>Shermatova Ra'no O'ktam qizi, Baxodirova Gulnoz Kamalovna</i>	
Xalq og'zaki ijodi asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini takomillashtirish texnologiyalari	124
<i>Abduraximova Muxabbat Allayevna</i>	
Bo'lajak fizika o'qituvchilarini nanotexnologiya sohasidagi bilimlarni taqdim etishga va o'qitishga tayyorlash metodikasi	129
<i>Sottarov Abduvali Umirqulovich</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning raqamli tafakkurini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	133
<i>Nuraliyeva Feruza Abdusalim qizi</i>	
Emotsional intellekt va raqamli kommunikatsiya: yoshlar psixologiyasida zamonaviy tendensiyalar	137
<i>Qahharov Nuriddin Sherbek o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda "o'quv burnout" (o'qishga nisbatan charchash va sovish) holatining oldini olishda motivatsion pedagogik texnologiyalar	142
<i>Babajanova Gulmira Muratbayevna</i>	
Linguopragmatic Errors in Artificial Intelligence-Generated Translations	147
<i>Aytmuxamedova Durdona Jasur qizi</i>	
Клинические особенности аллергодерматозов у лиц, проживающих в Ташкентской области	153
<i>Абдуллаева Ф. Б., Саипова Н. С.</i>	
Tyutorlik faoliyatining pedagogik ahamiyati	160
<i>Ashirova Gulnora Xayrullayevna</i>	
Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbga yo'naltirish metodikasini takomillashtirish	164
<i>Nurmuratova Iroda Nuriddinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda diqqat yetishmasligi va giperfaollik: mnemotexnik korreksiya	169
<i>Egamberdiyeva Xuriyat Egamberdiyevna, Kaxxarova Ozoda Abdimo'minovna</i>	
The Historical Development of Translation	173
<i>Sharopova Gulnoza Odil qizi</i>	
Integratsiya jarayonlarini samarali boshqarishga yo'naltirilgan metodik tizim	176
<i>L. T. Xudaybergenova</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlari metodikasini ishlab chiqish	180
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Bo'lajak tibbiyot xodimlarining diagnostik kompetensiyalarini shakllantirishda innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'rni: ilmiy adabiyotlar sharhi	186
<i>Xalimova S. A.</i>	
The Role and Opportunities of Artificial Intelligence (AI) in the Management of Educational Institutions	191
<i>Abduqahorova Lobar Oybekovna</i>	
Malaka oshirish jarayonida maktab direktorlarining mediakompetentligini rivojlantirishning tashkiliy-boshqaruv mexanizmi	197
<i>Xidirova Maftuna Ilhom qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida iqtisodiy tarbiya berishda STEAM va an'anaviy usullarning qiyosiy tahlili	205
<i>Boltayeva Nasiba Ilhom qizi</i>	

Kasb-hunar ta'limida elektromobillar va robototexnika yo'nalishlarini rivojlantirish: xalqaro hamkorlik tajribasi va "2+1" dual ta'lim modeli.....	209
<i>Dushanov Nuriddin Qo'ldoshovich, Suvonov Murodjon Abdurahmon o'g'li, Ibragimova Dinara Rustam qizi, Karimova Oygul Ro'ziyevna, Avliyoqulov Muxammad Mustafoyevich</i>	
Multimodal matnlarni tanlash va dalillarga asoslangan o'quv topshiriqlarining metodikasini ishlab chiqish ...	212
<i>G'ofurova Dilshodaxon Toxirjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda "ijodiy faoliyat" va "kreativlik" konseptlarining nazariy-metodologik interpretatsiyasi...	218
<i>Komila Aytmuratova</i>	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining leksik kompetensiyasini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi asosida rivojlantirishga doir mashqlar tipologiyasining samaradorligi.....	222
<i>Maxmudova Feruza Salimjonovna</i>	
O'zbek va rus nasrida oilaviy munosabatlarning badiiy-psixologik talqini	227
<i>Qurbonova Malika Toxir qizi</i>	
O'quv-biluv kompetensiyasining nazariy asoslari va zamonaviy pedagogik yondashuvlar	230
<i>Saydaxmedova Barno Batirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matematik tayyorgarligi tarkibi: TIMSS va PISA xalqaro baholash dasturlari asosidagi nazariy tahlil	235
<i>Abdusattarova Zaynab</i>	
Fizikani o'qitishda barqaror taraqqiyot tushunchalarini rivojlantirish: O'zbekiston kontekstida adabiyotlar tahlili.....	243
<i>Avazova Oltin</i>	
Futbolda 11–12 yoshli darvozabonlarni texnik-taktik jihatdan tayyorlashda maxsus mashqlarning ahamiyati	247
<i>Ibragimov Qosimbek Isroil o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanni o'qitish jarayonida sun'iy intellekt yordamida foydalanib nazariy bilimlarni hayotga tatbiq qilib o'rganish metodlari	253
<i>Jo'layeva Munira Choriyevna</i>	
Creativity-Oriented Language Teaching in Karakalpak Folk Pedagogy	256
<i>Khodzhanizayeva Aygul Aytmuratovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda estetik kompetentlikni rivojlantirishning metodik asoslari.....	264
<i>Saidova Dilorom Erkinovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	269
<i>Farhodova Sevara Qo'ziboy qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish texnologiyalari.....	274
<i>Norkulova Jasmina Sodikovna</i>	
Umumta'lim maktablarida matematik kechalar orqali o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirish samaradorligi.....	277
<i>Saytniyozov Adham Annamuhomet o'g'li</i>	
Tibbiy va pedagogik ta'lim jarayonida "Case Study" metodini qo'llash orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	282
<i>Shaymatova Azizaxon Rustambekovna</i>	
Dutor ijrochiligining amaliy-texnik jihatlariga e'tibor qaratish va ushbu jarayonni rivojlantirish	286
<i>Shodiyeva Shahinabonu Shoirjon qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik texnikani shakllantirish texnologiyalari	293
<i>Turimbetova Sveta Muhammedaliyevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlik menejmentini takomillashtirishda direktor o'rinbosarining roli	297
<i>Xolnazarova Shaxnoza Baxodir qizi</i>	
Адаптивная геймификация в школьном обучении физике	304
<i>Индира Бахадуровна Ерленесова</i>	
Bo'lajak pedagoglarda qadriyatlar tizimining shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar	309
<i>Taylanova Sh. Z.</i>	



Metakognitiv kompetensiya: mohiyati va mazmuni, tarixiy evolyutsiyasi.....	317
<i>Xasanova Feruza Xurramovna, Abdullayeva G. A.</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy tayyorgarlikni ta'minlovchi refleksiv va motivatsion mexanizmlar	322
<i>Fayziyeva Umida Asadovna</i>	
Arab tilida jumla tuzilishi: ismiy va fe'liy jumalarning nahviy tahlili	328
<i>Quqonboyeva Moxlaroyim Elmurodjon qizi</i>	
"Maugli" asarining didaktik ahamiyati va obrazlar tahlili	333
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi</i>	
Jadid taraqqiyparvari Ahmad Zaki Validiyning ijtimoiy-siyosiy faoliyati va uning vatanparvarlik harakatlari...	337
<i>Raximov Azizbek Normurodovich</i>	
Biologiya darslarida kooperativ ta'lim texnologiyasidan foydalanish metodikasi	342
<i>Ibodova Mahfuza Namozovna</i>	
Ta'limni tashkil etishning pedagogik omillari	346
<i>Yuldasheva Nilufar Abdullayevna, Hazratkulova Lobar To'rabek qizi</i>	
5–7 yoshli qizlarda badiiy gimnastika orqali maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirish	350
<i>Botirova Sayyora Nurullayevna</i>	
Talabalarda grammatik kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari	354
<i>Aymanova Shiyrinay Kamilovna</i>	
Yosh ofitserlarda xizmat rezistentligini belgilovchi ijtimoiy-psixologik determinantlar	357
<i>Rejаметова Irada Ikramshikovna</i>	
Chapaqay o'quvchilarda grafik malakalarni rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari	363
<i>Yusufzoda Shabnami Yunus</i>	
Преимущества использования STEAM технологий в дошкольном образовании.....	368
<i>Садикова Д. Х.</i>	
Sun'iy intellekt bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning kognitiv mustaqilligi va metakognitiv nazoratining pedagogik-psixologik determinantlari	371
<i>Saliyeva Muslima Maxsetbay qizi</i>	
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt asosidagi kiberxavfsizlik tizimlarining etik va huquqiy jihatlari o'qitish metodikasi	377
<i>Turanova Aynur Baxtjan qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar alaliyasini korreksiya qilishda neyrostimulyatsiya hamda logopedik texnologiyalarning kompleks qo'llanilishi.....	381
<i>Axunxodjayeva Dildoraxon G'anixon qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi korporativ ta'lim tendensiyasi sifatida	384
<i>Qilichova Marxabo Xudaykulovna</i>	
Informatika fanini innovatsion vositalar bilan o'qitish.....	392
<i>Allaberganova Muyassar, Po'lotova Sevinchoy Arslon qizi</i>	
Jamoat tartibini saqlash xizmatida boshqaruv kompetensiyalarining ijtimoiy-psixologik determinatsiyasi....	397
<i>Mamatxanov Nodirxon Sadridin o'g'li</i>	
Sociolinguistic Variation in English: A Study of Dialects and Accents.....	402
<i>Keldiboyeva Diyora Shuhratilla qizi, Ramazonova Feruzaxon Akbarovna</i>	
Ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal-vizual vositalar orqali voqelanishi: chog'ishtirma-pragmatik tahlil.....	405
<i>Mo'minova Maftuna Alijonovna</i>	
Long-Term Retention and Pragmatic Use of English Idioms Following Adaptive Instruction: A Longitudinal Follow-Up Study.....	409
<i>Alisher Sidikov Uktamjonovich</i>	
Ta'lim klasteri sharoitida bo'lajak muhandislarning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va metodik modeli	418
<i>Yangiyev Shavkat Norkobulovich</i>	
Ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchilarining biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	422
<i>Sh. Yu. Abdunabiyeva</i>	

Dual ta'lim modeli sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	428
Turamuratov Ulug'bek Uraqovich	
Bo'lajak o'qituvchilarni raqamli baholash faoliyatiga tayyorlashning pedagogik modeli	433
Raisov Shamsiddin Rashid o'g'li	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarining kreativ fikrlashini rivojlantirishda raqamli pedagogik texnologiyalarning samaradorligi	438
Radjapov Aybek Allaberganovich	
Miya falajiga chalingan bolalar bilan qilichbozlik mashg'ulotlarini o'tkazish uchun moslashuvchan dasturni ishlab chiqish va raqamli uslubiy yordam	442
Davranova Maftunabonu Elyorovna	
Maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari kasbiy mas'uliyatini shakllantirishning nazariy va amaliy asoslari...	448
Xalimova Ozoda	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlashini raqamli didaktik o'yinlar vositasida rivojlantirish	451
Sabohat Sharofiddinovna Siddiqova	
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy-metodik kompetentligini rivojlantirishda simulyatsion texnologiyalarni qo'llash metodikasi	455
Baratova Yulduz	
Talabalar huquqiy madaniyatini yuksaltirishda sun'iy intellektning o'rni	461
Shamsudinova Malika Ulug'bek qizi	
Deviant xulqli o'quvchilarni tarbiyalashning pedagogik-psixologik muammolari va ularning yechimlari.....	464
Usmonov Abdurashid Norbo'tayevich	
Muloqot va uni o'smirlik yoshida rivojlantirish masalalari	470
Orifova Sabot Yakubovna	
O'smirlik davridagi shaxslararo munosabatlarni tadqiq etish metodlari.....	474
Safarova Dilnoza Kuchkarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining barkamol yosh avlodni shakllantirishida milliy innovatsion pedagogik texnologiyalarning o'rni	478
Ibodullayeva Dildora Shukrulla qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi ahamiyatining rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlili.....	481
Oripova A'lo O'ktam qizi	
Logopediya fanida me'yor tushunchasining zamonaviy talqinlari: nazariy yondashuvlar va metodologik asoslar.....	485
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	



INGLIZ VA O'ZBEK MULTIMODAL DISKURSIDA LINGVOMADANIY MA'NONING VERBAL-VIZUAL VOSITALAR ORQALI VOQELANISHI: CHOG'ISHTIRMA-PRAGMATIK TAHLIL

Mo'minova Maftuna Alijonovna

Nizomiy nomidagi O'zMPU Filologiya fakulteti,
ITNM kafedrası v. b. dotsenti, PhD

Annotatsiya: Mazkur maqolada ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'noning verbal va vizual vositalar orqali voqelanish xususiyatlari chog'ishtirma-pragmatik jihatdan tahlil qilinadi. Kino, reklama, ta'lim materiallari va ijtimoiy tarmoq diskursida verbal birliklar hamda vizual komponentlarning o'zaro munosabati o'rganiladi. Tadqiqotda multimodal, lingvomadaniy, vizual-semiotik, pragmatik va chog'ishtirma tahlil metodlaridan foydalaniladi. Natijalar verbal-vizual vositalarning o'zaro uyg'unligi lingvomadaniy ma'noni shakllantirish bilan birga, ingliz va o'zbek kommunikativ muhitiga xos madaniy qadriyatlar va pragmatik maqsadlarni ham yuzaga chiqarishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: multimodal diskurs, lingvomadaniy ma'no, verbal vosita, vizual vosita, verbal-vizual munosabat, madaniy kod, lingvomadaniy marker, pragmatik ta'sir, semiotika, chog'ishtirma tahlil.

Abstract: This article provides a comparative-pragmatic analysis of the realization of linguocultural meaning through verbal and visual means in English and Uzbek multimodal discourse. It examines the interaction between verbal units and visual components in film, advertising, educational materials, and social media discourse. The study employs multimodal, linguocultural, visual-semiotic, pragmatic, and comparative methods of analysis. The findings demonstrate that the interaction of verbal and visual means not only contributes to the construction of linguocultural meaning but also reveals culturally specific values and pragmatic intentions characteristic of English and Uzbek communicative contexts.

Key words: multimodal discourse, linguocultural meaning, verbal means, visual means, verbal-visual interaction, cultural code, linguocultural marker, pragmatic effect, semiotics, comparative analysis.

Аннотация: В данной статье проводится сопоставительно-прагматический анализ особенностей реализации лингвокультурного значения посредством вербальных и визуальных средств в английском и узбекском мультимодальном дискурсе. Рассматривается взаимодействие вербальных единиц и визуальных компонентов в кино-дискурсе, рекламном дискурсе, образовательных материалах и дискурсе социальных сетей. В исследовании применяются методы мультимодального, лингвокультурологического, визуально-семиотического, прагматического и сопоставительного анализа. Результаты показывают, что взаимодействие вербальных и визуальных средств не только способствует формированию лингвокультурного значения, но и выявляет культурные ценности и прагматические цели, характерные для английской и узбекской коммуникативной среды.

Ключевые слова: мультимодальный дискурс, лингвокультурное значение, вербальные средства, визуальные средства, вербально-визуальное взаимодействие, культурный код, лингвокультурный маркер, прагматическое воздействие, семиотика, сопоставительный анализ.

KIRISH

Zamonaviy kommunikativ makonda ma'no faqat verbal birliklar orqali emas, balki tasvir, rang, kompozitsiya, mimika, harakat va boshqa semiotik vositalarning o'zaro uyg'unligi asosida shakllanadi. Kino, reklama, ta'lim materiallari va ijtimoiy tarmoqlarda verbal hamda vizual komponentlarning birgalikda qo'llanishi multimodal diskursning muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Multimodal diskursda verbal va vizual vositalar bir-birini takrorlashi, to'ldirishi, izohlashi yoki ayrim hollarda semantik kontrast hosil qilishi mumkin. Ularning o'zaro munosabati natijasida kommunikativ mazmun bilan bir qatorda muayyan jamiyatning qadriyatlari,



an'analari, milliy obrazlari va madaniy kodlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy ma'no ham yuzaga keladi. Shu sababli multimodal diskursni o'rganishda verbal va vizual komponentlarni alohida emas, balki yagona ma'no yaratish tizimining o'zaro bog'liq qismlari sifatida tahlil qilish muhimdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Multimodal diskurs masalasi zamonaviy tilshunoslik, semiotika va kommunikatsiya tadqiqotlarida keng o'rganilmoqda. Ushbu yo'nalishning nazariy asoslarini shakllantirishda G. Kress va T. van Leeuwenning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Olimlar vizual tasvirni mustaqil semiotik tizim sifatida talqin qilib, rang, kompozitsiya, obraz, makon va boshqa vizual elementlarning kommunikativ ma'no yaratish imkoniyatlarini asoslab berganlar ^[1].

G. Kressning keyingi tadqiqotlarida esa multimodal ma'no yaratishda turli semiotik resurslarning o'zaro integratsiyasiga asoslangan kommunikativ hodisa sifatida yoritiladi ^[4].

Verbal va vizual axborotning birgalikda idrok etilishi A. Paivioning dual kodlash nazariyasida kognitiv nuqtayi nazardan izohlangan. Ushbu nazariyaga ko'ra, verbal va obrazli axborot o'zaro bog'liq, ammo nisbatan mustaqil tizimlarda qayta ishlanadi ^[2]. Mazkur yondashuv multimodal materiallarda verbal va vizual komponentlarning birgalikda qo'llanishi axborotni anglash va eslab qolishga qanday ta'sir qilishini tushuntirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Verbal va vizual komponentlarning semantik munosabatini o'rganishda R. Barthes tomonidan ilgari surilgan anchorage va relay tushunchalari muhim o'rin tutadi. Anchorage verbal matnning vizual tasvir talqinini muayyan ma'noga yo'naltirishini, relay esa verbal va vizual komponentlarning bir-birini to'ldirib, umumiy mazmunni shakllantirishini anglatadi ^[3].

C. Jewitt multimodal tahlil doirasini yanada kengaytirib, verbal, vizual, audial, fazoviy va boshqa semiotik resurslarni o'zaro bog'liq holda o'rganish zarurligini ta'kidlaydi ^[5].

Reklama diskursida esa C. Forceville vizual metafora va tasviriy vositalarning persuziv ma'no yaratishdagi imkoniyatlarini tadqiq etgan ^[6].

O'zbek tilshunosligida esa multimodal va polikodli matnlarning lingvomadaniy, pragmatik hamda kognitiv xususiyatlariga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, K. T. Odilova polikodli matnlarning semantik va sintaktik strukturalarini kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan tadqiq qilgan ^[10].

Multimodal diskursda ma'no verbal vositalar bilangina emas, balki tasvir, rang, kompozitsiya, mimika, harakat va boshqa semiotik resurslarning o'zaro munosabati orqali shakllanadi. G. Kress va T. van Leeuwen vizual elementlarni ham verbal til singari ma'no yaratishga xizmat qiluvchi semiotik resurslar sifatida talqin qiladilar ^[1]. Shu nuqtayi nazardan, multimodal matnda verbal va vizual komponentlar yagona kommunikativ mazmunni shakllantiruvchi o'zaro bog'liq birliklar hisoblanadi.

Verbal va vizual axborotning birgalikda idrok etilishini tushuntirishda A. Paivioning dual kodlash nazariyasi muhim ahamiyatga ega. Unga ko'ra, verbal va obrazli axborot turli, ammo o'zaro bog'langan tizimlarda qayta ishlanadi ^[2]. Bu tamoyil kino, ta'lim materiallari, reklama va raqamli kommunikatsiyada verbal hamda vizual vositalarning birgalikda qo'llanishi ma'noni anglash va eslab qolishga xizmat qilishini izohlash imkonini beradi.

R. Barthes verbal va vizual komponentlarning o'zaro munosabatini anchorage va relay tushunchalari orqali izohlaydi ^[3]. Anchorage verbal matn tasvirning talqinini muayyan ma'noga yo'naltirsa, relayda matn va tasvir mazmunning turli qismlarini yetkazib, bir-birini to'ldiradi. Biroq multimodal diskursda verbal va vizual komponentlar faqat uyg'un munosabatga kirishmaydi; ular o'rtasidagi kontrast ham kinoya, yashirin baho yoki boshqa pragmatik ma'nolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Lingvomadaniy nuqtayi nazardan esa verbal va vizual belgilar muayyan jamiyatga xos qadriyatlar, realiyalar, an'analari va madaniy assotsiatsiyalarni faollashtiradi. Shu sababli bir xil konsept turli lingvomadaniy muhitlarda turlicha semiotik vositalar orqali konkretlashishi mumkin. Bu holat ingliz va o'zbek multimodal diskursini chog'ishtirma-pragmatik jihatdan o'rganish uchun muhim asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot materiallarini ingliz va o'zbek kommunikativ makoniga mansub multimodal namunalar tashkil etadi. Tahlilda kino diskursi, reklama materiallari, ta'limga oid multimodal matnlar hamda ijtimoiy tarmoq kontentidagi verbal va vizual komponentlarga e'tibor qaratildi. Materiallarning tanlanishida verbal va vizual vositalarning birgalikda ma'no yaratishi hamda lingvomadaniy mazmunni ifodalash imkoniyati asosiy mezon sifatida belgilandi.

Tadqiqotda multimodal diskurs tahlili, lingvomadaniy tahlil, vizual-semiotik tahlil, pragmatik va chog'ishtirma metodlar qo'llanildi. Multimodal tahlil verbal va vizual komponentlarning o'zaro aloqasini aniqlashga, lingvom-



adaniy tahlil madaniy kod va markerlarni ajratishga, pragmatik tahlil esa ushbu vositalarning adresatga ta'sir ko'rsatish funksiyasini belgilashga xizmat qildi. Chog'ishtirma metod orqali ingliz va o'zbek multimodal diskursidagi umumiy hamda milliy-madaniy xususiyatlar aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalari ingliz va o'zbek multimodal diskursida verbal hamda vizual vositalarning o'zaro munosabati diskurs turiga qarab turli funksiyalarni bajarishini ko'rsatdi. Kino diskursida ular dramatik va emotsional ma'noni shakllantirishga, ta'lim materiallarida mazmunni konkretlashtirish va tushuntirishga, ijtimoiy tarmoqlarda emotsional-pragmatik munosabatni ifodalashga, reklamada esa auditoriyaga ta'sir ko'rsatish hamda madaniy qadriyatlarini faollashtirishga xizmat qiladi.

Kino diskursida verbal-vizual munosabat ayniqsa murakkab xarakterga ega. Dialog, mimika, harakat, kadr va boshqa vositalar bir vaqtning o'zida ma'no yaratishda qatnashadi ^[5]. Masalan, personajning "Men yaxshiman" mazmunidagi verbal bayonoti uning qayg'uli yuz ifodasi yoki ko'z yoshlari bilan birga berilganda, verbal va vizual komponentlar o'rtasida kontrast yuzaga keladi. Bunda verbal birlik tashqi kommunikativ pozitsiyani, vizual komponent esa personajning haqiqiy emotsional holatini ifodalaydi. Natijada adresat alohida so'z yoki tasvirda mavjud bo'lmagan yashirin pragmatik ma'noni ularning o'zaro munosabatidan chiqaradi.

Lingvomadaniy jihatdan kino diskursida ham muayyan farqlar kuzatiladi. O'zbek kino materiallarida maqol, ibora, qarindoshlik nomlari va milliy-madaniy realiyalar verbal qatlamga qo'shimcha madaniy mazmun yuklashi mumkin. Ingliz tilidagi kino materiallarida esa lingvomadaniy mazmun boshqa verbal birliklar, ijtimoiy munosabat shakllari va vizual kodlar orqali yuzaga chiqadi. Demak, emotsiya yoki munosabat kabi universal mazmun mavjud bo'lsa-da, uning multimodal konkretlashuvi madaniy kontekstga bog'liq.

Ta'lim diskursida verbal-vizual munosabatning asosiy vazifasi axborotni tushuntirish va konkretlashtirishdan iborat. Masalan, darslikda muayyan obyekt verbal matn orqali tavsiflansa, unga hamroh bo'lgan rasm uning vizual ko'rinishini beradi. Bunday holatda verbal komponent tasvirning talqinini aniqlashtirishi, ya'ni anchorage vazifasini bajarishi mumkin. Shu bilan birga, tasvir verbal matnda bevosita qayd etilmagan rang, shakl yoki tuzilishga oid ma'lumotlarni yetkazsa, komponentlar o'rtasida relay xususiyati yuzaga keladi ^[3].

Ingliz va o'zbek ta'lim materiallaridagi umumiy xususiyat matn, rasm, diagramma va boshqa vizual elementlarning o'quv axborotini soddalashtirish uchun birgalikda qo'llanishidir. Lingvomadaniy farqlar esa, ayniqsa, illyustrativ material tanlashda namoyon bo'lishi mumkin. O'zbek auditoriyasiga mo'ljallangan materiallarda milliy kiyim, mahalliy manzara, urf-odat va kundalik turmush obrazlari qo'llanishi vizual mazmunni lokal madaniy kontekst bilan bog'laydi. Shunday qilib, vizual komponent faqat didaktik emas, balki lingvomadaniy funksiya ham bajaradi.

Ijtimoiy tarmoq diskursida matn, tasvir, emoji, stiker va boshqa semiotik vositalarning integratsiyasi yangi pragmatik imkoniyatlarni yuzaga keltiradi ^[7]. Masalan, verbal fikrga qo'shilgan emoji uning emotsional tonalligini aniqlashtirishi yoki dastlabki ma'nosini o'zgartirishi mumkin. Tanqidiy yoki jiddiy fikrdan keyin tabassum emoji qo'llanishi bayonning yumshatilgan yoki hazil ohangida talqin qilinishiga olib keladi. Demak, vizual belgi verbal xabarga qo'shimcha pragmatik ko'rsatma beradi.

Ijtimoiy tarmoqlarda lingvomadaniy ma'no xeshteglar, milliy ramzlar, realiyalar, ko'p tillilik va madaniy jihatdan tanish obrazlar orqali ham shakllanadi. O'zbek raqamli diskursida o'zbek, rus va ingliz birliklarining bir post doirasida almashib kelishi zamonaviy kommunikativ muhitning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bunda kod almashinuvi faqat lingvistik hodisa emas, balki adresatga yaqinlashish, zamonaviylikni namoyon etish yoki muayyan guruh bilan identifikatsiyalanish kabi pragmatik funksiyalarni ham bajaradi.

Reklama diskursida esa verbal-vizual munosabat ayniqsa persuasiv xarakterga ega ^[6]. Slogan, baholovchi leksika va da'vat shakllari tasvir, inson obrazi, rang va kompozitsiya bilan birlashib, mahsulot yoki g'oyani muayyan madaniy qadriyat bilan bog'laydi. Shu sababli reklamadagi lingvomadaniy ma'no ko'pincha verbal yoki vizual komponentning o'zidan emas, ularning integratsiyasidan hosil bo'ladi ^[4].

O'tkazilgan tahlil asosida multimodal diskurs turlaridagi verbal-vizual munosabatni quyidagicha umumlashtirish mumkin (1-jadval).

1-jadval: **Multimodal diskurs turlarida verbal-vizual komponentlarning funksional xususiyatlari.**

Diskurs turi	Verbal komponent	Vizual komponent	Yetakchi funksiya
Kino	dialog, titr, verbal bayon	mimika, harakat, kadr	dramatik-emotsional ma'no
Ta'lim	izoh, atama, tavsif	rasm, diagramma, sxema	tushuntirish va konkretlashtirish
Ijtimoiy tarmoq	post, izoh, xeshteg	emoji, tasvir, stiker	emotsional-pragmatik ta'sir
Reklama	slogan, da'vat, baholash	obraz, rang, kompozitsiya	persuasiv va lingvomadaniy ta'sir



Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, verbal va vizual komponentlarning o'zaro munosabati barcha multimodal diskurs turlarida ma'no yaratishning muhim vositasi bo'lsa-da, ularning yetakchi funksiyasi diskursning kommunikativ maqsadiga ko'ra farqlanadi.

Chog'ishtirma natijalar shuni ko'rsatadiki, ingliz va o'zbek multimodal diskursida verbal va vizual vositalarning integratsiyasi universal hodisa, ammo ushbu vositalar orqali faollashtiriladigan madaniy kodlar va assotsiatsiyalar milliy-kommunikativ muhitga qarab farqlanadi. Demak, lingvomadaniy o'ziga xoslik faqat alohida so'z yoki milliy obrazda emas, balki verbal va vizual belgilar o'rtasida o'rnatiladigan munosabatda ham namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar multimodal diskursda lingvomadaniy ma'noni faqat verbal yoki vizual komponentni alohida o'rganish orqali to'liq ochib bo'lmayligini ko'rsatadi. Verbal birlik vizual obrazning talqinini aniqlashtirishi, vizual vosita esa verbal xabarda bevosita ifodalanmagan emotsional va madaniy assotsiatsiyalarni faollashtirishi mumkin. Ayrim holatlarda esa ular o'rtasidagi kontrast yangi pragmatik ma'no yuzaga keltiradi. Tahlilda Barthesning anchorage va relay munosabatlari turli diskurslarda turlicha namoyon bo'lishi kuzatildi^[8]. Ta'lim materiallarida anchorage ko'proq tushuntiruvchi xarakterga ega bo'lsa, kino va raqamli kommunikatsiyada relay ma'noning rivojlanishiga xizmat qiladi. Reklama diskursida esa verbal-vizual uyg'unlik adresatning e'tiborini jalb qilish va muayyan qadriyatni faollashtirish orqali pragmatik ta'sirni kuchaytiradi.

Ingliz va o'zbek materiallarini chog'ishtirish natijasida verbal-vizual integratsiyaning umumiy semiotik mexanizmlari bilan bir qatorda, lingvomadaniy ma'noning konkretlashuvida milliy xususiyatlar mavjudligi aniqlandi. Bunda milliy realiyalar, obrazlar, qadriyatlar va kommunikativ me'yorlar multimodal xabarning pragmatik talqiniga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari ingliz va o'zbek multimodal diskursida lingvomadaniy ma'no verbal va vizual vositalarning o'zaro munosabati orqali shakllanishini ko'rsatdi. Ushbu komponentlar bir-birini aniqlashtirishi, to'ldirishi yoki kontrast hosil qilishi natijasida yaxlit kommunikativ-pragmatik mazmun yuzaga keladi.

Kino, ta'lim, ijtimoiy tarmoq va reklama diskurslarining tahlili verbal-vizual munosabatning funksiyasi diskurs turiga qarab o'zgarishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ingliz va o'zbek multimodal diskursida verbal-vizual integratsiyaning umumiy mexanizmlari mavjud bo'lsa-da, lingvomadaniy markerlar, madaniy kodlar va assotsiatsiyalarning tanlanishida milliy xususiyatlar namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, multimodal diskursni chog'ishtirma-pragmatik va lingvomadaniy yondashuvlarning uyg'unligida o'rganish verbal-vizual vositalarning ma'no yaratish imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kress G., van Leeuwen T. Reading Images: The Grammar of Visual Design. 2nd ed. London: Routledge, 2006.
2. Paivio A. Imagery and Verbal Processes. New York: Holt, Rinehart and Winston, 1971.
3. Barthes R. Rhetoric of the Image // Image-Music-Text. London: Fontana Press, 1977. P. 32–51.
4. Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. London: Routledge, 2010.
5. Jewitt C. (ed.). The Routledge Handbook of Multimodal Analysis. 2nd ed. London: Routledge, 2014.
6. Forceville C. Pictorial Metaphor in Advertising. London: Routledge, 1996.
7. Li H. A Review of Social Semiotics in the Interaction of Text and Image // Journal of Social Sciences & Cultural Studies. 2021. Vol. 4, No. 2. P. 1–6.
8. Mo'minova M.A. Linguocultural classification of visual and verbal signs in English and Uzbek language. // Actual problems of modern science, education and training Journal. Khorezm science.uz October, 2025-10. ISSN: 2181-9750
9. Mo'minova M. Pragmatic functions of linguacultural components in multimodal discourse. // Multidisciplinary and Multidimensional Journal. Vol.4 No.8 (2025) ISSN: 2775-5118
10. Odilova K.T. Kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan polikodli matnlarning semantik va sintaktik strukturalari // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar: V xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 2025. B. 775-779.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №8(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.